



TEKNOLOGIK FANLAR DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. Axborot texnologiyalari kafedrasida
dotsenti **Rustamov Jamshid Ergashovich***

rustamovjam7@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola ta’limda zamonaviy vositalardan foydalanish, o’qitishning zamonaviy texnik vositalaridan uzluksiz ta’lim tizimida qanday foydalanish mumkin, degan masala bugungi kunda dolzarbligi haqida.*

Kalit so‘zlar: *texnik vositalar, uzluksiz ta’lim, vazifasi, elektron ta’lim jarayoni, ET.*

Texnologiya fanining asosiy vazifalari faollarining o‘zi amaliyotga ijodgorlik bilan zamon talablariga mos keladigan maxsulotlar ishlab chiqarishdan iborat. O‘quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini oshirish uchun kasb hunarni tanlashda iqtidoriga qarab, ularning psixologik fiziologik jixatlarni xisobga olib ularni tanlagan kasblarini turlariga qarab o’qitishdan iborat.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ta’kidlanganidek ta’limning tizimi va mazmunini shakllantirish uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalarni xamda o‘quv tarbiyaviy jarayonining didaktiv taminotini yaratish” talab etiladi. Har bir pedagog o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilishdan avval o‘quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy mezonlarni bilmog‘I zarur. Chunki ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonida ma’lum bir reja asosida qullanilmasa u natija bermaydi.

Texnologiya fanida xar qanday mashg‘ulotning tashkil etishi va tuzilishi maqsadga muvofiq va aniq bo‘lishi kerak. Texnologiya fanida mashg‘ulotlarda kuproq unumli mehnat bilan shug‘ullaniladi. Buning uchun mashg‘ulotning moddiy



texnika bazasi, yangi mashina, mexanizm, stanok va moslamalar yaxshiishlashi, ish qurollari yetarli bo'lishi kerak. Darsning tashkiliy aniqligi to'g'ri bo'lishi uchun o'qituvchi mashg'ulotlarni baxolashda tashkiliy ishlarni shuningdek o'quv yili davomidagi kamchiliklarni xisobga olishi kerakligi nazarda tutiladi.

Texnologiya fanida kompetensiyalarni shakllantirishda bosqichma bosqich bu jarayonda biz o'qituvchilar Ta'lim jarayonini tashkil etish modeliga'' asosan. O'quv jarayonini tashkillaymiz;

- tashkiliy qism;
- ma'naviy daqiqalar;
- uy topshiriqlarni nazorat qilish;
- o'tgan mavzuni mustahkamlash;
- nazariy ma'lumot;
- amaliy mashg'ulot;
- mustahkamlash darsi;
- uyga vazifa.

Mana shu o'quv jarayonining har bir qismiga o'qituvchi ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad, kasb hunarga yo'naltiruvchi maqsadlarni ko'zda tutgan xolda puxta tayyorgarlik ko'rishi, dars ishlanmalarini shu asosida ishlab chiqishi lozim.

Amaliyotni nazaryadan ustuvorligi, texnologiya mashg'ulotlarida, albatta amaliyotining o'rni katta. Inson miyyasi biror bir narsa haqidagi ma'lumotini ko'rib, eshitib va anglab chiqsagina u haqida kompetensiyaviy yondashuv shakillanadi. Masalan, 1-1, 5 yoshdagi bolaga olma deb qancha uqtirmag u haqida ta'surotga ega bo'la olmaydi. Olmani kursatib, bu olma desangiz bola uni ko'rib eshitib, anglab yetadi. Kyeyingi safar bir ko'rishda olma ekanligi, uni shakli, rangi, va yesa bo'lishligini anglab yetadi. Bundan chiqdiki darslarni faqatgina nazariy

“Ta'lim sohasini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar va unga qaratilgan yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi “Ta'lim sohasidagi



xizmatlari uchun” xalqaro ko’rik tanlovi emas, o’quvchilarga ko’rgazmali va amaliy olib borish kerak. Amaliyot o’quvchilarning ijodkorligini oshirishda va mustaqil fikrlashda muhim rol o’naydi.

Mashg’ulotlarda mavzularni ongli o’zlashtirish, amaliy va nazariy mashg’ulotlarda zarur bo’lgan ilmiy texnikaviy bilimlarni o’quvchilarga tushuntirib berish, ish qurollaridan to’g’ri foydalanish xamda buyumga ishlov berishni to’g’ri tanlay olish zarur. Mashg’ulotlarni tashkil etishda berilgan bilimlarini amalda qullay olsagina, o’qituvchi bergan kompetensiyaviy yondashuv shaakllanganligi yaqqol namoyon bo’ladi. O’quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini o’stirish yo’llari belgilab berilgan. Ilmiy tadqiqotlarning natijalari hozirgi maktab o’quvchilarining faoliyati ijodiy izlanish tasnifida bo’lishi kerak, buning uchun esa, o’quvchilarni ob’ektiv borlig’dagi xodisalarni mustaqil xolda aniqlash tekshirish va tushuntirishga o’rgatuvchi uslublarni qo’llash zarurligini tasdiqlash imkonini beradi. Tayyor xolda o’quvchilarga beriladigan bilimlar ularni qobiliyatlarini susaytiradi. Xar bir bosqichda aniq natijaga ega bo’lishi kerak, bu natija birinchi bosqichda idrok etilgan va qabul qilingan g’oya, ikkinchi bosqichda g’oya konustruktorlik-texnologik jixatdan ishlab chiqish, amalga oshirish imkoniyatiga yetkazish, uchunchi bosqichda qarorni amalga oshirish, to’rtinchi bosqichda analiz, ishni tugatish va yechimni baxolash hisoblanadi. Biz o’qituvchilar yoshlarga ijobiy o’rnak ko’rsata olishimiz kerak. CHunki o’quvchi yoshlarga texnologiya sirlarini mukammal o’rgatsak, ular hayotda qullay olsa, oldimizga qo’yilgan maqsadimizga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K. Davlatov Mehnat va kasb ta’limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi” Toshkent o’qituvchi 1992 y.
2. S. Boltaboyev, O. Magdiyev Mehnat va kasb ta’limi metodikasidan amaliy mashg’ulotlar” Toshkent TDPU -2002 y.
3. Farxodovich, Boronov Bobur, and Rajaboyev Shahboz Shodi o’g’li.



- "MECHANISMS FOR USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES IN THE ELECTRONIC GOVERNMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN AND THEIR EFFECTIVENESS." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 285-292.
4. Farxodovich, Boronov Bobur. "STAGES OF DEVELOPMENT OF THE INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES SYSTEM." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 293-298.
 5. Farxodovich, Boronov Bobur, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, and Yodgorov Xushvaqt Mansurovich. "FARMASEVTIKA KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY* 1.1 (2025): 282-289.
 6. Боронов, Бобур, and Заррух Мухаммадиев. "ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЪЕМА УЧЕТА КАПИТАЛЬНЫХ ВЛОЖЕНИЙ В ХОЗЯЙСТВУЮЩИЕ СУБЪЕКТЫ." *Передовая экономика и педагогические технологии* 2.2 (2025): 444-450.
 7. Boronov, Bobur, and Zarrux Muxammadiev. "Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to 'g 'risidagi hisobotda aks ettirish uslubi-yatini takomillashtirish." *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT* 3.4 (2025). Rajaboyev, S. (2024). ZAMONAVIY SHAROITDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(12), 160–166. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss12-pp160-166>
 8. Rajaboyev , S., & Xamidova , P. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARIDAN FOYDALANISH. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 3(1), 120–124. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss1-pp120-124>
 9. Ражабоев Ш.Ш., and Амиртошев Д.Ш.. "РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА



БАНК ХИЗМАТЛАРИДА БЛОКЧАЙН ТЕХНОЛОГИЯСИНИ КЎЛЛАШ"

Экономика и социум, no. 4-2 (119), 2024, pp. 853-858.

10. Ражабоев Ш.Ш., and Ҳайитмуродов Ш.О.. "ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМЛАРИНИНГ ТУЗИЛИШ ТАМОЙИЛЛАРИ" Экономика и социум, no. 4-2 (119), 2024, pp. 848-852.